

SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI

Abduvoidov Hasan Ilhom o'g'li

Sirdaryo viloyati yuridik

texnikumi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578093>

Annotatsiya. Ushbu tezisda yaqin kelajakda sun'iy intellekt (AI - artificial intelligence) turli xil kompaniyalar va tashkilotlarga innovatsiyalar kiritishdagi o'rni va innovatsion jarayonlarini boshqarish usullariga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, innovatsiya, menejment, ChatGPT, korxona, texnik uskuna, ishlash tizimlari va prinsiplari, iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy inqilob.

THE ROLE OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Abstract. This thesis provides information on how artificial intelligence (AI - artificial intelligence) can influence the role of innovation in various companies and organizations and the ways of managing innovation processes in the near future.

Keywords: artificial intelligence, innovation, management, ChatGPT, enterprise, technical equipment, work systems and principles, economic crisis, social revolution.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ЭРУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. В данной статье представлена информация о том, как искусственный интеллект (ИИ – искусственный интеллект) может повлиять на роль инноваций в различных компаниях и организациях и на способы управления инновационными процессами в ближайшем будущем.

Ключевые слова: искусственный интеллект, инновации, менеджмент, ChatGPT, предприятие, техническая оснащенность, системы и принципы работы, экономический кризис, социальная революция.

Bugungi kunda biror bir mashinaning (texnik uskuna) tashqi ma'lumotlarni qayta ishlash, sharhlash va o'rganish qobiliyati sifatida ta'riflangan sun'iy intellekt (AI) hayotimizning barcha jabhalarini jadallik bilan o'zgartirib bormoqda. Misol uchun, sun'iy intellekt hozirda hal qilib bo'lmaydigan ilmiy muammolarni tezlik bilan hal qila oladi, yangi turdagi dori vositalarini tezroq yaratishga yordam beradi, xo'jalik ishlarimizda kerak bo'ladigan avtomashinalarni yaratishga imkon beradi, shuningdek, onlayn xaridlarni osonlashtiradi va bizning ko'nglimizga yoqadigan

narsani oson topishga yordam beradi. Bundan tashqari, global rivojlanayotgan va barcha uchun umumiy maqsadli texnologiya sifatida qaralayotgan sun'iy intellekt, taqqoslaydigan bo'lsak, 30 yillar oldin internet nima vazifani bajargan bo'lsa yoki 100 yillar oldin elektr energiyasi turmush tarzida qanday muhim rol o'ynagan bo'lsa, u ham har bir sohani yaxshilashi va kelgusi dekadada tashkilotlardagi boshqaruv tizimini butunlay o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Masalan, hozirgi kunda barcha uchun ma'lum bo'lgan va keng foydalanib kelinayotgan ChatGPT insoniyat uchun keng ko'lamli xizmatlarni bajarib bermoqda hamda ayrim korxonadagi inson tomonidan bajariladigan idrokli ishlarni yuqori tezlikda yechim topib hal qilmoqda. Demak, hammasi ijobiy tomonga ketmoqda, unda kelgusida tashkilotlardagi boshqaruv tizimi haqida o'ylashdan nima foyda degan savol yuzaga keladi. Ishlash tizimlari va prinsiplari takomillashar ekan, bu vaqtning o'zida menejment tizimi ham rivojlanish jarayoniga qo'shilishi kerak.

Sun'iy intellekt jahondagi ko'plab mamlakatlarning sanoatida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga xissa qo'shmoqda va bu jarayon mazkur amaliyotni yanada rivojlantirish uchun sun'iy intellektni yanada to'g'riroq yo'nalishda boshqarishga zamin yaratmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, hammasi joyida bo'lishiga qaramasdan, kelajakda sun'iy intellekt insoniyatning tashkilotlarni boshqarish tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishi hali ham so'roq ostida turmoqda. Masalan, agar ularni boshqarish davomida menejment tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, sun'iy intellekt ko'p jarayonlarni izdan chiqarishi mumkin, xatto insoniyatning o'ziga ham qarshi ishlash ehtimoli yo'q emas. Oqibatda, juda ko'plab insonlar ishsiz qolishi va insoniyat orasida katta iqtisodiy inqiroz yuz berib, shu vaqtning o'zida katta bir iqtisodiy-ijtimoiy inqilib ham boshlanishi mumkin. Bunda insoniyat hokimyat boshqaruvining yangi tizim va strategiyalarini yaratishni boshlaydi. Bundan tashqari, oldinda eng katta xavf - iqtisodiy inqiroz masalasini ijobiy tomonga o'zgartirish majburiyati ham bor. Tasavvur qiling, ko'p sonli ishlar sun'iy intellekt tomonidan oshirilsa, misol uchun, mashina haydash, tikish, ovqat pishirish, sanoat ishlari, ustaxonalar va xattoki davlat tashkilotidagi ayrim ishlar ham shu qatarga kirsas, natijada insoniyat moliyaviy kun kechirishi uchun boshqa yo'llarni izlashiga to'g'ri keladi. Shunday bo'lsa-da, fikrimga ko'ra bu jarayonda yangi ijobiy inqilob uchun ham turtki bor, ya'ni insonlar endilikda faqatgina ko'ngil ochar ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va barcha kundalik yumushlardan tortib ular xarid qiladigan mahsulotlarning tayyorlanishigacha hammasi sun'iy intellekt (masalan, robotlar) tomonidan oshirila boshlaydi. Natijada, insoniyat oldida menejment sohasining yangicha yo'nalishlari paydo bo'la boshlaydi.

Oldinlari menejment tizimlari insoniyatning ishlash prinsiplariga tayanib tashkillashtirilgan bo'lsa, endilikda yangi innovatsion menejmentga katta yo'l ochiladi va bunda

boshqaruv tizimini tubdan yangilash vazifasi yotadi. Innovatsion menejment o'zi nima? Ko'pchilikka ma'lum-ki, innovatsiya bu yangilik qilish, topish va uni amaliyotga kiritish demakdir. Xuddi shu voqeilik menejment sohasida bo'lib o'tadi va shu paytgacha inson tomonidan bu sohada amalga oshirilgan ishlar, yozilgan maqola va kitoblar, uslubiy qo'llanmalar qaysidir ma'noda o'zlarning ahamiyat darajasini yo'qota boshlaydi. Bu tabiiy jarayon, yer yuzida vaqt degan fizik tushuncha mavjud ekan, barcha narsalar qachondir eskira boshlaydi va ularni yangilashga ehtiyoj paydo bo'ladi. Mazkur maqolada shu mavzudagi bir necha maqolalar va kitoblarni o'qish orqali olingan bilimlar qisqaroq va tushunarliroq qilib yoritiladi va o'rinli joylarda takliflar ham keltiriladi.

Yuqorida taxmin qilinayotgan yangicha davrda sun'iy intellekt boshqaruvini innovatsion rivojlanish jarayonni ta'minlash maqsadida soha mutaxassislari tomonidan bir necha takliflar berib o'tilgan. Zelko Tekich va Yoxan Fyullerning "Sun'iy intellekt davrida innovatsiyalarni boshqarish" maqolasida sun'iy intellektda innovatsiyalar boshqaruvini ilg'or bosqichga olib chiqish orqali innovatsiyalarni boshqarishda inqilob qilish potensialiga ega bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildirilgan¹. Bundan tashqari, Naomi Hefnerning "Sun'iy intellekt va innovatsion menejment: izoh, amaliyot va izlanish natijalari" ilmiy ishida sun'iy intellekt davrida innovatsion menejmentni takomillashtirish uchun avvalo sun'iy intellekt miyasi qanday ishlashi va qanday vazifalar orqali menejmentga moslashuvchanligini aniqlab olish zarurligi bayon qilingan. Unga ko'ra, bu holat (sun'iy intellektning miyasi ishlash jarayoni) 3 bosqichga bo'lib tushuntirilgan: ishlarni bajarish (birinchi bosqich), ma'lumotlarni kengaytirish (ikkinchi bosqich) va yangi hodisalarni tadqiqot qilish (oxirgi bosqich)². Shu bosqichlarni tahlil qilish va kuzatish orqali innovatsion menejmentdagi strategiyalarni o'zgartish va yangilab borish mumkin. Misol uchun, sun'iy intellekt ma'lum bir tashkilotda ma'lum bir vazifani bajaradi va kuzatishlarda davomida unda qo'shimcha xususiyatlar yuzaga kelishi bilanoq uni maqsadliroq yo'lda sarflash uchun boshqaruv tizimiga yangi ko'rinishdagi takliflar berilishi mumkin va ularning natijasida sun'iy intellekt boshqaruvida innovatsion uslublar qo'llanila boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, 21-asrda insoniyat rivojlanishida sun'iy intellekt ham o'z o'rniga ega bo'lmoqda va undan samarali foydalanish uchun insoniyat innovatsion boshqaruvlar yo'llarini izlashi, hamda ularni amaliyotda qo'llashni boshlashlari kerak. Zero, bu harakatlar insoniyat kelajagini inqiroz va jaholatga emas, aksincha ma'rifat va ilm-fan taraqqiyotiga yetaklashi kerak.

¹ Zelko Tekic, Johann Fuller - "Managing innovation in the era of AI", 2023

² Naomi Haefner - "Artificial intelligence and innovation management", 2021

REFERENCES

1. Naomi Haefner, "Artificial intelligence and innovation management: a review, framework, and research agenda" 2021
2. Zeljko Tekic, Johann Fuller, "Managing innovation in the era of AI" 2023



MODERN SCIENCE
& RESEARCH